

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NIYAZOV SOBIRJON SODIQOVICH

**YOSHLARDA EKOESTETIK IDEALNI SHAKLLANTIRISHDA TABIAT
TURIZMINING O‘RNI VA ROLI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Niyazov Sobirjon Sodiqovich

Yoshlarda ekoestetik idealni shakllantirishda tabiat turizmining o‘rni va roli.....5

Ниязов Собиржон Содикович

Значение и роль природного туризма в формировании экоэстетического
идеала у молодежи.....23

Niyazov SobirjonSadikovich

Significance and role of natural tourism in the formation of eco-esthetic ideal
among young people45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....50

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

NIYAZOV SOBIRJON SODIQOVICH

**YOSHLARDA EKOESTETIK IDEALNI SHAKLLANTIRISHDA TABIAT
TURIZMINING O'RNI VA ROLI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Fal518 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Aymatov Aminjon Qudratovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xajiyeva MaqsudaSultonovna
falsafa fanlari doktori, professor

Omonov Bahodir Nurullayevich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2024 yil "____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori(DSc), professor

Sharipov A.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori(DSc), professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda fan va texnika taraqqiyoti, inson ehtiyojlarining ortishi oqibatida yer yuzida qator ekologik muammolar yuzaga kelib, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlarda uyg'unlikni ta'minlash, ekoturizmga bo'lgan ehtiyojning ortishi, ekoturizmni jadal rivojlantirish vazifalarini bugungi shart-sharoitlarga moslashtirishni taqozo qilmoqda. Ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitda hayot kechirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, yuzaga kelayotgan va yuz berib bo'lgan muammolarga yechim topish eng avvallo, tabiatga muhabbat, tabiat haqidagi bilim, ko'nikma, ekologik tarbiya, qadriyat va an'analarga, umuman olganda ekologik madaniyatga bog'liqdir. Shuning uchun estetik ideal haqidagi qarashlar negizida shakllangan ekoestetik idealning, uning ontologik va gnoseologik negizlarini hamda tabiat turizmi takomillashuvining ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy estetik imkoniyatlarini ijtimoiy-falsafiy aspektda ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida global ekologik tahdid xavfini kamaytirish, uning oqibatlarini bartaraf qilish, ekoturizmning iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanishning usul va vositalarini ishlab chiqish, bu boradagi tadqiqotlarning mustahkam ilmiy-nazariy, metodologik-konseptual asoslarini yaratishga oid fundamental va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Insoniyat ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnik, ma'naviy-madaniy, estetik hayoti taraqqiyotini belgilovchi va hal qiluvchi pallaga kirib borayotgan bir davrda fan paradigmaları tizimida ijtimoiy ekologik munosabatlarning ustuvorlashuvi qonuniyat maqomiga ega bo'lib, ijtimoiy ong shakllarini ekologiyalashtirish tamoyillari va yo'nalishlarini belgilab bormoqda. O'z navbatida, tabiatga ijtimoiy munosabat va jamiyat ekologik madaniyatining korrelyatsion va integrativ aloqadorligini, ekoestetik idealning tabiat go'zalligi, mukammallik, tabiiy uyg'unlik va poklikda namoyon bo'lish xususiyatlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda bioxilma-xillikni asrash va atmosferaning ifloslanishini kamaytirish yo'lida "yashil" turizm, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish, yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish bilan bog'liq ekologik siyosat yurgizishga qaratilgan islohotlar olib borilmoqda. "Eng muhim masala - aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. ...Ushbu yo'nalishda fuqarolar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari bilan jamoat ekologik nazoratini amalga oshirishda hamkorlik qilish samarasini ta'minlashga doir muvofiqlashtirish ishlarini tizimli yo'lga qo'yish zarur"¹. Ayniqsa, yoshlarda tabiat turizmi vositasida ekoestetik idealni shakllantirish, O'zbekistonda tabiat turizmini rivojlantirish orqali

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: Ўзбекистон, 2021. -Б.392.

yoshlarda ekoestetik idealni yuksaltirishning istiqbollari aniqlash va takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 3-oktabrdagi PQ-3956-son “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tabiatga ekoestetik munosabatini shakllantirishda tabiat turizmining roli, tabiatni estetik idrok qilishning, ekologik ong va madaniyatni rivojlantirishning potensial imkoniyatlarini, strategik vazifalarini, ratsional usul-vositalarini o‘rganishga doir ilmiy tadqiqotlardan xorijlik mutaxassislar F.Bekon, J.J.Russo, V.Hiyoslening atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan siyosat asoslari, R.Di Silvestroning sayyoradagi bioxilmaxillikni saqlash masalalariga doir asarlari e‘tiborga loyiq².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamalakatlarida ham bu borada jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, M.A.Vostrikova, R.S.Gaysina, Ye.V.Luneva asarlarida ekologik vaziyatda yuz berayotgan o‘zgarishlar va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish zaruriyati, A.Kumar, Ye.V.Matveyeva, A.V.Karanda asarlarida xalqaro, mintaqaviy va milliy ekologik munosabatlar

² Бэкон Ф. О достоинстве и преумножении наук. //Сочинения в 2-х томах. Том 1.-Москва:Мысль, 1977. 590 с.; Руссо Ж.-Ж. Об общественном договоре. Трактаты. /Пер. с фр. -Москва: Канон-пресс, 1998. -416 с.; Витторио Хиёсле. Философия и экология.-Москва:Издательская фирма АМІ, 1994. -322 с.; DiSilvestro R. Reclaiming the Last Wild Places: a new agenda for biodiversity. -New York: Chichester, Brisbane: John Willey and Sons, Inc., 1993. -247 p.

xarakteridagi o'zgarishlar, K.A.Berdenova, G.A.Drobot asarlarida ekologik muammolarning sabablari, namoyon bo'lish shakllari va bartaraf etish yo'llari, V.Y.Vershinina, A.Y.Ignatenko, M.N.Kopilov, S.M.Kopilov, P.M.Mozias asarlarida davlatlarning bugungi kundagi ekologik siyosati xususiyatlari asoslab berilgan³.

O'zbekistonda ekologik soha bilan bog'liq ilmiy-falsafiy muammolar atroflicha tadqiq qilingan. Jumladan, H.Ahmedov, S.Mamashokirov, H.Salomova, M.S.Xajiyeva, O'.Tilavov ishlarida barqaror ekologik taraqqiyot va xavfsizlikning milliy, hududiy va global muammolari bayon etilgan. A.Berdimurotova, B.N.Omonov o'z asarlarida Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolarga doir ilmiy qarashlarini bayon qilganlar. A.Q.Aymatov, Z.Y.Adilov, S.U.Kistaubayev, Sh.B.Samanova, Z.Sh.Yazdonov, U.G'.Saidova, X.Juraqulov, F.Qilichev, A.Qo'ldoshev dissertatsiyalarida esa shaxs ekologik ongini shakllantirish masalalari talqin etilgan⁴.

³Вострикова М.А., Шкода В.В. Основные виды загрязнений водных объектов. //Иновационная наука, 2016, №4. -С. 101-108; Гайсина Р.С. Экологическая ситуация: взгляды на сущность, образование и пути решения. //Концепт, 2013, №6. -С. 21-25; Лунева Е. В. Рациональное использование природных ресурсов: понятие и правовые критерии// LexRussica, 2017, №8. -С. 62-72; Анубхути Кумар. Экономическая и экологическая преступность: риски для корпоративного бизнеса. //refinitiv.ru; Матвеева Е.В. Институционализация экологических движений Европы: от появления общественных организаций до политических партий. //Вестник Томского государственного университета, 2016, № 413, -С. 129-137;Каранда А.В. Экологическая политика: понятие, виды, принципы. //Молодой ученый, 2020, №3, -С. 352-354; Берденова К.А., Штанг В.В., Синцов С.В. “Зеленая” экономика как двигатель устойчивого развития. //Сибирский торгово-экономический журнал, 2012, №15. -С. 103-106;Дробот Г.А., Кочеткова Е.В. Экологические проблемы как глобальная угроза безопасности. //Вестник МГУ. Сер. 18. Социология и политология, 2009, №3. -С. 146-157; Вершинина В.Ю. Экологическая политика КНР: глобальный, региональный и национальный аспекты. //Актуальные проблемы современных международных отношений, 2014, №4. -С. 76-82; Игнатенко А.Ю. Экологическая политика и образование в Соединенных Штатах Америки. //Экология и безопасность в техносфере: современные проблемы и пути решения. -Томск: ТПУ, 2015. -С. 56-58.;Копылов М.Н., Копылов С.М., Мохаммад Сарвар Мохаммад Анвар. Формирование глобальной экологической политики и международных режимов международного экологического управления: perasperaadastrum 1.// Legal Concept, 2015, №2 -С. 138-149; Мозиаз П.М. Экологическая политика в Китае: вверх по лестнице, ведущей вниз?//Общество и государство в Китае, 2016, №2. -С. 178-184.

⁴Ахмедов А. Экологик назорат: назария, методология ва амалиёт. -Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2017. -83 б.; Мамашакиров С. Роль социально-политических факторов в формировании экологической активности и ответственности: Автореф. дисс. на соиск. уч.степ.д.филос. н. -Ташкент: ТашГУ, 1997. 87 с.; Саломова Х.Ю. Ижтимоий экология асослари. -Тошкент: Фан ва технология, 2004. -155 б.; Xajiyeva M.S.Globallashuv asoslari.-Toshkent:Фан, 2019. 237 б.; Ў.Ф. Тилавов Глобал барқарор таракқиётда экологик партияларнинг роли (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф. -Тошкент: ЎзМУ, 2021. -88 б.; Бердимуратова А.К. Философско-методологический анализ современной экологической ситуации на пороге XXI века. -Тошкент: Фан, 1999. -170 с.; Омонов Б.Н. Ўзбекистоннинг Оролбўйи минтақасидаги ижтимоий экологик сиёсати. -Тошкент: Фан, 2014. -184 б.; Аймаев А.Қ. Шахснинг табиатга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик онгининг роли: Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф. -Самарқанд: СамДУ, 2019. -87 б.; Адиллов З. Ю. Диний манбаларда экологик муаммоларнинг ечими: Фалс. ф.бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Бухоро: БухДУ, 2021. -78 б.; Кистаубаев С.У. Шахс экологик дунёқарабини шакллантиришда миллий қадриятларнинг роли: Фалс.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. -Самарқанд: СамДУ, 2019. -78 б.; Саманова Ш.Б. Экологик толерантликнинг ижтимоий-фалсафий асослари: Фалс.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. -Самарқанд: СамДУ, 2019, -78 б.; Яздонов З.Ш. Ўзбек халқ экологик маданияти анъаналарини тиклаш ва ривожлантириш тенденциялари: Фалс.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. -Самарқанд: СамДУ, 2019.-76 б.; Саидова.У.Г. Экологик маданият тарихи ва унинг ривожланиш босқичлари. Фалс.ф.н.. (PhD) дисс. автореф. -Тошкент: ЎзМУ, 2008. -74 б.; Джуракулов Х. Замонавий экотуризм ривожиди шахс экологик ҳуқуқий онгини юксалтириш зарурияти: Фалс.ф.д. (DSc) дисс. автореф. -Самарқанд: СамДУ, 2022. -76 б.; Қиличев Ф. Шахс экологик маданиятини шакллантиришда диний қадриятларнинг роли: Фалс.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. -Тошкент: ЎзМУ, 2022. -74 б.; Қўлдошев А. Марказий Осиё давлатларида экологик муносабатларни бошқаришнинг демократик ва гуманистик тамойиллари.-Тошкент: Фан, 2014. -160 б.

Ilmiy manbalar tasnifi va talqini ko'rsatadiki, mutaxassislar, bir tomondan, zamonaviy ekologik jarayonlarning turli xususiyatlari va yo'nalishlari, ikkinchi tomondan esa, davlat ekologik siyosatining asoslarini mufassal tadqiq qilganlar. Biroq, ular ekologik globallashuv sharoitida – umumta'lim maktablari o'quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish kontekstidagi muammolarni tadqiq etishni maqsad qilib qo'ymaganlar. Shuni hisobga olgan holda, mazkur dissertatsiyada ushbu muammo tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsining shakllanishida obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar dialektikasi" (2020-2025 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yoshlar ekoestetik idealini shakllantirishda tabiat turizmining rolini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"tabiat turizmi" tushunchasining falsafiy-estetik mohiyatini, ontologik, gnoseologik va praksiologik xususiyatlarini tadqiq etish;

ekoestetik tafakkurga tizimli yondashuv asosida tabiat turizmining strukturaviy asoslari hamda istiqbolini aniqlash;

ekoestetik idealning mazmuni va mohiyati, funksiyalari va ekoestetik tafakkurning shakllanishiga ta'sir etuvchi obyektiv va subyektiv omillarini tahlil qilish;

yoshlar ekoestetik idealining asosiy xususiyatlarini, tabiat turizmi vositasida uni shakllantirish tajribalarini tadqiq etish;

O'zbekistonda tabiat turizmini rivojlantirishning dolzarb muammolari va ustuvor vazifalarini ochib berish;

yoshlar ekoestetik tafakkurini rivojlantirishda tabiat turizmidan samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida turizmni rivojlantirish islohotlari, yoshlar ekologik madaniyatiga ta'sir etuvchi omillar, estetik tafakkurning shakllanish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti ekoestetik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlarini, yoshlar ekoestetik idealini shakllantirishda tabiat turizmining ahamiyatini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, diaxronik talqin, dialektik, sinergetik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yoshlar ekoestetik idealini shakllantirishda tabiat turizmining (jonli tabiat qo'yniga sayohat, hudud ekologiyasi, tozalik, yaratuvchanlik) rekreatsion jarayon sifatidagi tabiatni barqarorlashtirish, aholini ish bilan ta'minlash, madaniy aloqalarni mustahkamlash kabi ijtimoiy, aholi ekologik dunyoqarashi va ongini takomillashtirish, milliy madaniyatni xalqaro madaniyatga integratsiyalashtirish kabi madaniy, tabiat va inson munosabatlarini me'yoriy darajasini ta'minlash kabi dialektik xususiyatlari aniqlashtirilgan;

zamonaviy ekoestetik tafakkurning transformatsiyasi jarayonida ekologik ehtiyojlar ustuvorlashuvi ijtimoiy ong shaklining personifikatsiyalashuviga va ekologik tizimlarning universal funksiyalar bilan integratsiyalashuvi hamda ekologik qadriyatlarni, tabiatga estetik munosabatni yangi mezonlar bilan baholash va ularni estetik-badiiy obrazlarda ifodalash, ekologik faoliyatni konstruktiv-ratsional tashkillashtirish zarurati mantiqiy isbotlangan;

zamonaviy ekoturizmning xalq madaniyati bilan tanishish, hurmat qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini qo'llab-quvvatlash kabi tamoyillari asosida O'zbekistonda tabiat turizmini rivojlantirishning sayillar, ko'l va cho'li hududlarda ov qilish uchun sharoit yaratish, qisqa hamda uzoq muddatli loyihalarni ishlab chiqish va hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tabiiy va sun'iy qo'riqxonalar, bog'lar, suv omborlari atrofida yurtalar tashkil etish, tadbirkor va investorlar faoliyati uchun keng yo'l ochish kabi potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish yo'nalishlari asoslab berilgan;

yoshlarda ekoestetik tafakkurni rivojlantirishning ekologik madaniyat differensiallashuvi, salomatlikni saqlash, ruhiy va jismoniy salohiyatni yuksaltirish kabi gedonistik va evdomonistik xususiyatlari hamda ratsional ilmiy bilim va ekoestetik qadriyatlar tizimini shakllantirish, emotsional-hissiy tuyg'ularni boshqarish, shaxs ekologik faolligi va mas'uliyatini shakllantirishda estetik usullar, vositalarni rivojlantirish kabi pedagogik-didaktik funksiyasi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ekoturizmni rivojlantirish jahon turistik xizmat bozorida O'zbekistonning ekoturistik salohiyati, tabiiy potentsiali, imkoniyatlari va resurslarini namoyish qilishda, tabiatning, geotizimlarning ekoturistik resurslari va imkoniyatlaridan yanada samarali foydalanishga, ekoturistik xizmatlar sifatini tubdan takomillashtirish va taklif etilayotgan ekoturistik xizmatlarning hajmini jadal oshirishga, istiqbolda ekoturizmni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy, innovatsion va metodik ishlanmalarni yaratish va xalqaro imidjini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan;

O'zbekistonda ekologik ta'lim tizimini amalga oshirishda ekologik ong va madaniyatni rivojlantiruvchi fanlarni uyg'unlashtirish (integrativ tashkiliy asos), aholida tabiatni muhofaza qilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish (pedagogik-didaktik asos), ekologik bilimlarni ommaga estetik vositalar yordamida yetkazuvchi pedagog-mutaxassislar ilmiy salohiyatini oshirish tizimini yaratish (intellektual asos), ta'lim tizimida nazariy, ilmiy-metodik o'quv materiallari, innovatsion pedagogik texnologiya bilan ta'minotini yaxshilash (ilmiy-metodologik asos) kabi muhim yo'nalishlari ochib berilgan;

yoshlar ekologik madaniyatini rivojlantirishda ilmiy loyihalar, amaliy ishlanmalar, startaplar loyihalarni ko'paytirish, investitsiyalarni jalb qilish kabi ilmiy-ijodiy faoliyat, ekologik ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, fanlar tarkibiga ekologik bilimlarni singdiruvchi mavzularni kiritish, ekologik ta'lim berishni zamonaviylashtirish, ta'limiy-tarbiyaviy, san'at va ijodiy soha vakillaridan ekologik madaniyatni targ'ib qilishda keng foydalanish kabi ma'naviy-ma'rifiy, ekologik qadriyatlarni yoshlarga yetkazish, qadimiy obidalar, madaniy yodgorliklar, betakror tabiat maskanlari haqida mediamateriallar tayyorlash va

amaliyotda foydalanish kabi madaniy-ko'ngilochar, ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko'paytirish, obodonlashtirish, umumxalq hasharlarini joriy etishning tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, unda ilgari surilgan xulosalar, nazariy umumlasmalar va tavsiyalardan ekologik globallashtirish, atrof-muhitning ifloslanishi, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi formatdagi kadrlarni tayyorlash, shuningdek, muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlarida nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash, «yashil» iqtisodiyotga o'tish hamda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish yo'nalishlarida konsepsiya va strategiyalarni takomillashtirishda, ilmiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishda innovatsion g'oyalar, amaliyot va texnologiyalarni tatbiq etish, yoshlar ekoestetik ongini va tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan g'oyalar, nazariy xulosa va amaliy tavsiyalardan ekologik madaniyatni takomillashtirishga doir normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda, ekologik masalalar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar faoliyatida, ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlardan o'tiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda, "2030-yilgacha bo'lgan davrda aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasi" hamda uni amalga oshirish bo'yicha 2024-2026-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishda, ekologik ta'limga oid elektron-metodik vositalarni yaratish va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yoshlarda ekoestetik idealni shakllantirishda tabiat turizmining o'rni va roli bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish borasida olingan ilmiy natijalar asosida:

yoshlar ekoestetik idealini shakllantirishda tabiat turizmining (jonli tabiat qo'yniga sayohat, hudud ekologiyasi, tozalik, yaratuvchanlik) rekreatsion jarayon sifatidagi tabiatni barqarorlashtirish, aholini ish bilan ta'minlash, madaniy aloqalarni mustahkamlash kabi ijtimoiy, aholi ekologik dunyoqarashi va ongini takomillashtirish, milliy madaniyatni xalqaro madaniyatga integratsiyalashtirish kabi madaniy, tabiat va inson munosabatlarini me'yoriy darajasini ta'minlash kabi dialektik xususiyatlariga doir nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan A-OT-2021-132-son "Surxon vohasi

tarixiy va etnomadaniy manbalariga oid “I-Turizm” platlormasini ishlab chiqish” (2021-2023-yy.) amaliy loyiha doirasida nashr etilgan ishlarda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 6-iyuldagi 04/11-4146-son ma’lumotnomasi). Natijada, ekologik holatni yaxshilash borasidagi dolzarb vazifalar, ekologik madaniyatini oshirish, yosh avlod qalbida ona tabiatga daxldorlik hissini tarbiyalash hamda loyihaning ilmiy-metodologik sifatini takomillashtirishda, yoshlarning ekoestetik idealini shakllantirishda hamda tabiat turizmni rivojlantirishda muhim nazariy-amaliy manba sifatida xizmat qilgan;

zamonaviy ekoestetik tafakkurning transformatsiyasi jarayonida ekologik ehtiyojlar ustuvorlashuvi ijtimoiy ong shaklini personifikatsiyalashuviga va ekologik tizimlarning universal funksiyalar bilan integratsiyalashuvi hamda ekologik qadriyatlarni, tabiatga estetik munosabatni yangi mezonlar bilan baholash va ularni estetik-badiiy obrazlarda ifodalash, ekologik faoliyatni konstruktiv-ratsional tashkillashtirish zaruratiga doir nazariy va amaliy xulosalardan O‘zbekiston Ekologik partiyasining dasturiy vazifalarini bajarishda, jumladan, 2020-2022 yilgi dasturiy vazifalari “VI. Aholining ekologik savodxonlik darajasini oshirish, dunyoqarashi va ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ekologik ma’lumotga ega bo‘lishini ta’minlash” da foydalanilgan (O‘zbekiston Ekologik partiyasining 2022-yil 16-martdagi 03/49-son ma’lumotnomasi). Natijada, saylovoldi dasturlarini ishlab chiqishda, ekologik madaniyat darajasini oshirish, yoshlarning ekologik ta’limi va tarbiyasi masalalarida sa’y-harakatlarni birlashtirishga hamda hududlarda ekoturizmni rivojlantirishda muhim nazariy-amaliy manba sifatida xizmat qilgan;

zamonaviy ekoturizmning xalq madaniyati bilan tanishish, hurmat qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash kabi tamoyillari asosida O‘zbekistonda tabiat turizmini rivojlantirishning sayillar, ko‘l va cho‘lli hududlarda ov qilish uchun sharoit yaratish, qisqa hamda uzoq muddatli loyihalarni ishlab chiqish va hukumat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tabiiy va sun‘iy qo‘riqxonalar, bog‘lar, suv omborlari atrofida yurtalar tashkil etish, tadbirkor va investorlar faoliyati uchun keng yo‘l ochish kabi potensial imkoniyatlarini yuzaga chiqarish yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida, 2022-yilga mo‘ljallangan ish rejasidagi “Mahalladagi yoshlar yetakchilari bilan ishlash, besh tashabbus loyihalarini muvofiqlashtirish, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning siyosiy-huquqiy savodxonligini oshirish yo‘nalishi”ning 22, 23, 24-bandlarida belgilangan tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 4-iyuldagi 4-13-21-1812-son ma’lumotnomasi). Natijada yoshlarning ekologik savodxonligini oshirishda hamda hududlarda ekoturizmni rivojlantirishda muhim nazariy-amaliy manba sifatida xizmat qilgan;

yoshlarda ekoestetik tafakkurni rivojlantirishning ekologik madaniyat differensiallashuvi, salomatlikni saqlash, ruhiy va jismoniy salohiyatni yuksaltirish kabi gedonistik va evdomonistik xususiyatlari hamda ratsional ilmiy bilim va ekoestetik qadriyatlar tizimini shakllantirish, emotsional-hissiy tuyg‘ularni

boshqarish, shaxs ekologik faolligi va mas'uliyatini shakllantirishda estetik usullar, vositalarni rivojlantirish kabi pedagogik-didaktik funksiyasi asoslangan taklif va tavsiyalaridan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 17 fevral kuni efirga uzatilgan “Ekologiyani muhofaza qilish” nomli teleko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 12-apreldagi 17-05/113-son ma'lumotnomasi). Natijada, fuqarolarning ekologik madaniyati yanada shakllanishiga, O'zbekistonda tabiat turizmining potentsial imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 9 ta, jumladan 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilinib, sinovdan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 18 ta, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (5 ta respublika, 2 ta xorijiy jurnalda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Tabiat turizmi tushunchasini tadqiq etishning metodologik-nazariy asoslari**”deb nomlangan bo'lib, unda tabiat turizmi tushunchasi va uning falsafiy tahlili amalga oshirilgan. Bundan tashqari tabiat turizmining estetik va ijtimoiy masalalari ochib berilgan. Shuningdek, tabiat turizmi hodisasining iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollari, dolzarb muammolari tadqiq qilingan.

Dissertatsiyada ekoturizmning atrof-muhitga oz miqdorda (unga ziyon yetkazmaslik maqsadida) antropogen ta'sir ko'rsatadigan har qanday sayohati paytida sayyoh atrof-muhitni o'rganadi, undan bahra oladi va tabiatning o'zi asosiy qadriyat bo'lib hisoblanishi ta'kidlangan. Ekoturizm hodisasining turli jihatlarini o'rganib chiqib, bilim, shuningdek, individning shaxsiy tajribasi va ushbu soha doirasida o'zgalarning tajribasi, shaxsning ma'naviy, axloqiy va intellektual manfaatlarning moddiy manfaatlardan ustunligi haqidagi qarashlarini shakllantirish uchun asos bo'lib, shaxsning rivojlanishiga hissa qo'shishi asoslab berilgan.

Ekologik turizmning falsafiy asoslari – atrofda o‘simlik va hayvonot dunyosi haqidagi ilmiy bilimlarga asoslangan ta’lim va axloq meyorlari tizimi bo‘lib, insonning olamni o‘rganish va uning barqarorligiga xizmat qilishning gumanistik asosini tashkil etadi. Ushbu ta’rif doirasida gumanistik asos deganda, shaxsning atrofda odamlarga nisbatan rahm-shafqat, hurmat, mehr-oqibat, adolat, sevgi, g‘amxo‘rlik asosida qurilgan munosabatlar majmui tushuniladi.

Tabiat turizmi – bu turizm sohasidagi asosiy resurs deb hisoblangan tabiiy muhitni yoki uning alohida tarkibiy qismlarini (tabiat yodgorliklari, hayvonot va nabotot olamining muayyan turlari va boshqalarni) saqlab qolishdan foydalanadigan bo‘lgan turizmdir. Yana shuni ta’kidlash lozimki, tabiat turizmi nafaqat sayyohning estetik zavqlanishi balki, mahalliy aholining iqtisodiy potensialining o‘sishi hamda o‘z madaniyatini saqlab qolish, uni jahon hamjamiyati afkor ommasiga namoyish qilish kabi ijtimoiy ahamiyati kattadir. Mutaxassislar tabiat turizmi hodisasiga bir nechta ta’riflar berishgan. Shulardan eng keng tarqalganlaridan biri, “Tabiat turizmi – bu atrof muhitga ehtiyotkorona, mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lgan holda uning tabiiy va estetik imkoniyatlaridan bahra olish va shu orqali mahalliy aholiga iqtisodiy foyda keltirishdir”⁵. Tabiat turizmining rivojlanishida mahalliy aholi tabiatning asl holatini saqlab qolish, unga sun’iy aralashuvlarni cheklash orqali tabiat go‘zalligini saqlab qolish, ekotizimning bir butunligini himoyalashdan foydalanadigan bo‘lishadi.

Dissertant fikricha, ekologik turizm o‘zining qadriyatlar tizimini o‘zgartirish orqali kishilarning ijtimoiy xatti-harakatlari modelini o‘zgartirishga qodir. Ushbu turdagi turizm ommabopligining siri nafaqat dam olish va qulay sharoitda erishiladigan davolovchi effekt bilan, balki sayyohning hech kim bilan raqobatlashishga hojat yo‘qligidir. Bu o‘rinda sayyohning asosiy “raqibi” o‘zi va uning texnogen sivilizatsiya tomonidan shakllangan komplekslari. Tabiat go‘zalligini tafakkur qilish sivilizatsiya “afzalliklari” bo‘lmagan sharoitlarda atrofdan estetik zavq olish bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tish joiz⁶.

Ekologik toza tabiiy hududlarga sayyohlik safari jarayonida nafaqat jismoniy, balki ruhiy-ma’naviy tiklanish ham sodir bo‘ladi. Ular:

1) tabiat go‘zalligini tafakkur qilish sivilizatsiya qulayliklari bo‘lmagan sharoitlarda atrofdan estetik zavq olish bilan bog‘liq bo‘ladi;

2) mintaqaning ekoturistik imkoniyatlari to‘g‘risida xorijiy jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida chet ellik turistik markazlar, turistik firmalar bilan maslahat uchrashuvlari olib borish ustuvor vazifa bo‘lib qolmoqda;

3) kognitiv ekologik turizm - bu ekologik sayohatning eng keng tarqalgan, klassik ko‘rinishi bo‘lib, bunday sayohatlarning motivlari har qanday o‘qimishli odamning tabiiy ehtiyojlari: qiziqish, o‘z dunyoqarashini kengaytirish va yangilikka intilish istagi bilan izohlanadi;

4) rekreatsiyani insonning jismoniy, intellektual va hissiy kuchlarini turli xil dam olish va bo‘sh vaqt o‘tkazish orqali qayta tiklash jarayoni sifatida tushunish lozim.

⁵ Лукичев А.Б. Сущность устойчивого и экологического туризма // Российский Журнал Экотуризма.— 2011.— № 1.— С.3-6.

⁶ Парфёнов А.И., Крайнов А.Л. Зоологические основы социального порядка. - Саратов, 2007. – С.160.

Dissertatsiyada respublikamizda tabiat turizmi sohasini rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari tahlil etilgan. Bu sohada olib borilayotgan islohotlar va sa'y harakatlardan maqsad mamlakatimizda turizm industriyasi (ekoturizm)ni rivojlantirishni jadal tarzda taraqqiy ettirish orqali aholi farovonligini oshirishdan iborat.

O'zbekiston o'zining betakror tabiati, xushmanzara maskanlari, boy madaniy merosi va qadimiy an'analari bilan xorijlik sayyohlarni o'ziga maftun etib kelmoqda. Bu ona diyorimizda ekoturizmni rivojlantirish imkonini beradi. Yurtimizning har hududida turizmning rivojlanishi uchun turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda butun respublikamiz bo'yicha manzarali bog'lar, gulzorlar barpo etilmoqda. Mana shunday manzarali bog'lar va gulzorlarning ostki qismida tashkil etsa ham bo'ladi. Buning qulaylik taraflari juda ko'p. Yurtimizda hamma sohalar singari turizm sohasi ham rivojlanib bormoqda. Biz ekoturizmni rivojlanishi natijasida ham ma'naviy, ham iqtisodiy foyda olishimiz mumkin. Bundan tashqari O'zbekiston tabiatini yangi o'simliklarni iqlimlashtirib boyitish maqsadga muvofiq bo'ladi. Faoliyatimiz natijasida biz bo'sh yerlardan foydalanishimiz va turli xil tuproq unumdorligini oshiruvchi o'simliklar ekib uning unumdorligini oshiramiz. Bu yerdagi sitrus mevali o'simliklarning mevasi ham bizni iqtisodiy jihatdan boyitadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, tabiat turizmi – turizmning alohida shakli bo'lib, jonli tabiat qo'yniga sayohat uyushtirish, undan estetik zavqlanish va dam olishga qaratilgan ijtimoiy rekreatsion jarayondir. Ekoturizmni rivojlantirish eng avvalo, iqtisodning ushbu sohasiga mahalliy aholini jalb qilish bilan bog'liq bo'lib, ekoturizm uchun zarur bo'lgan mahalliy bilim va tajribaga ega bo'lish zarur. Inson tabiatning go'zalligini va uning o'ziga xos xususiyatlarini kashf etish jarayonida tabiatga bo'lgan estetik munosabati kuchayadi va uni saqlashga bo'lgan qiziqishi ortadi. Atrof tozaligi, obodonchiligi, milliy arxitektura rivojlanadi, dam olish maskanlari, ko'zni quvontiruvchi muhit barpo etiladi. Uni ko'rib o'sayotgan yoshlarning estetikasi va tarbiyasida ijobiy o'sish yuzaga keladi va yaratuvchanlik xususiyati ortadi. O'zbekiston alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi. Ammo O'zbekiston milliy bog'lari va qo'riqxonalarining salohiyati ochilmagan. Dunyoda ekoturizmning o'sishi yiliga 20-30% ni tashkil qiladi, mamlakatimizda esa bu sohada sezilarli natijaga erishish uchun potensial imkoniyatlar juda katta.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yoshlar ekoestetik idealini shakllantirishda tabiat turizmidan foydalanish tajribalari”** deb nomlanib, unda ekoestetik tafakkur hodisa sifatida falsafaning eng muhim sohalarida aspektida tahlil obyektiga aylantirilgan. Ya'ni, hodisaning strukturaviy mohiyati, uning inson tafakkurida aks etishi va amaliy ahamiyati masalalari tadqiq etilgan.

Ekoestetik tafakkur hodisasi murakkab hodisa sifatida o'zining tuzilish mohiyatiga, borlig'iga, ana shu borlig'ini tashkil etgan elementlariga egadir. Ekoestetik tafakkur hodisasining borlig'ini anglash, ushbu hodisani har tomonlama, to'liq idrok etish yoshlarda ekoestetik tafakkurni shakllantirishga ratsional va samarali yondashish imkonini beradi. Zero har qanday faoliyat shakli

bilan faoliyat yuritish uning nechogʻli anglanganligi va unga nisbatan oqilona yondashish bilan belgilanadi.

Shaxs ekoestetik ideali tushunchasi insoniyatda mavjud iqtidor, bilim, amaliy tajribalarning takomillashgan darajasini tashkil etadi. Bu iqtidor barcha insonlarda mavjud tushunchani anglatmaydi. Shunga kura, yoshlar ekoestetik idealini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlar ekoestetik ideali shaxs ekoestetik idealining barkamollik bosqichini tashkil etadi. Bunda, yoshlar ekoestetik ideali – yoshlardagi iqtidor, bilim va tarbiyaning shakllanishi va rivojlanishi bilan bogʻliq jarayon deb tushunish maqsadga muvofiqdir. Ekoestetik ideal kuchli taʼlim-tarbiyaning singdirilishi va amaliy tajribalarning ortishi natijasida shakllanib boruvchi aqliy va ruhiy tafakkur darajasidir. Bugungi ekologik globallashuv jarayoni ekoestetik ideal shakllangan insonlarga boʻlgan talab-ehtiyojni ortayotganini koʻrsatmoqda. Shaxs ekoestetik ideal – insonning tabiat bilan oʻzaro munosabatlariga xos didining namoyon boʻlishini anglatib, tabiatning goʻzalligini tarannum qilish bilan birga uning yanada chiroy ochishiga xizmat qiladigan, tarovatini boshqalarga namoyon qilishda innovatsion gʻoyalarni yaratish va taklif qilish hissiy-emotsional qobiliyatiga ega shaxsni tushunamiz.

Dissertatsiyada tabiatdagi uygʻunlik, tabiat goʻzalligi, uning unikal va betakrorligi unga nisbatan estetik munosabatni ifodalash mohiyatini, mazmunini, shakllarini, hamda usul-vositalarini ham belgilab berishi asoslab berilgan. Chunki ekologik ong va madaniyatning tabiatga estetik munosabatni shakllantirishdagi funksional roli obyektiv voqelikni emotsional-hissiy aks ettirishi bilan bogʻliq holda bir butunlikni tashkil etadi va shu bilan birga ijtimoiy xarakter kasb etadi. “Bu hodisani badiiy adabiyot yoki monumental sanʼat misolida aniqlashtiradigan boʻlsak, ular – inson tomonidan tabiat va narsalarning ijodiy oʻzlashtirib, ideallashtirilgan hamda “moddiylashgan” obrazlar shaklidagi obyektivlashgan inson ruhidir”⁷.

Dissertant fikricha, tabiatdagi uygʻunlik, ekologik muvozanat sanʼatning doimiy ifodalash va badiiy oʻzgartirish obyekti, predmeti sifatida mavjud boʻlib kelgan. Yaʼni ijodkor tomonidan obyektning badiiy “oʻzgartirish”, qayta yaratish – sanʼat estetik funksiyasining bilvositaligini va unga subyektiv munosabatni koʻrsatib turadi. Lekin, shaxsning ekologik ongi va madaniyati asosida tabiatga estetik taʼsir jarayonida tabiatga estetik munosabatni shakllantirishdagi roli bevositaligi, uning estetik ong bilan zaruriy, obyektiv aloqadorligini izohlashga va tahlil qilishga asos boʻladi.

Tabiatga estetik munosabatni rivojlantirishda ekologik ongning subyektiv jihati va funksional ahamiyati:

birinchidan, shaxs, ijtimoiy birliklar va jamiyatning tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilishga yoʻnaltirilgan ijtimoiy-tarixiy amaliyotini badiiy obrazlarda ifodalashga maʼnaviy asos boʻladi;

ikkinchidan, tabiatga estetik munosabat yoʻnalishlarining rivojlanish qonuniyatlarini, tendensiyasini va istiqbol moʻljallarini belgilab beradi;

⁷Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: “Шарқ”, 2008.–Б.36.

uchinchidan, shaxs ekoestetik faoliyatini ratsionallashtiruvchi, konstruktivlashtiruvchi mafkuraviy usullar va vositalarni yaratadi;

to'rtinchidan, tabiatga estetik munosabat tarixida yaratilgan badiiy ijod namunalari tajribalarini umumlashtirib, tizimlashtirib kelajak avlodlarga meros qilib qoldiradi;

beshinchidan, tabiatga estetik munosabat natijasida shakllangan hozirgi ekologik ong va madaniyat darajasi, uning tarixiy taraqqiyoti jarayonida o'zlashtirilgan tajribalarining yangi sifatli darajasini ifodalaydi.

Dissertatsiyada insoniyat hayotida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, fan, texnika, texnologiya taraqqiyoti, intellektual salohiyat imkoniyatlarning beqiyos o'sib ketishi "inson va tabiat", "jamiyat va tabiat" munosabatlarini yangi mezonlar bilan baholash va ularni estetik-badiiy obrazlarda ifodalash, transformatsiya usullarini, vositalarini jiddiy qayta ko'rib chiqishni talab etilayotganligiga urg'u berilgan. Zero, tabiatga antropotexnogen ta'sir kuchayishi natijasida biosfera evolyutsion rivojlanishiga adekvat inson ekologik faoliyatini rag'batlantiradigan badiiy-estetik usullar, vositalar noshudligi ko'zga tashlanmoqda va insoniyat sivilizatsiyasi yutuqlari, uning istiqbollari katta xavf ostida qoldi. Ikkinchi tomondan, ekologik ongni va madaniyatni badiiy obrazlarda ifodalash tabiatga estetik munosabat jarayoni bo'lib, ijtimoiy-tarixiy amaliyotning maxsus shakli va darajasi hisoblanadi.

Ekoturizm umuman turizm industriyasidagi o'zining asosiy funksiyasiga ko'ra, ya'ni tabiiy atrof-muhit yoki uning komponentlarini, hayvonlar yoki o'simliklarning noyob turlari, landshaftlar va shu kabi tabiiy yodgorliklarni tomosha qilish va bioxilma-xillikni saqlab qolish, gedonistik, evdomonistik zavqlanish, lazzatlanish, huzurlanish maqsadi va iqtisodiy manfaatdorligi uyg'un bo'lgan yagona yo'nalish, faoliyat turi hisoblanadi. Zero, tabiat bag'riga sayohat qilinishdan asosiy maqsad, ya'ni sayyohlarning jonli tabiat, mahalliy aholi urf-odatlarini, an'analarini, hayot tarzi va madaniyati bilan bevosita tanishib, gedonistik va evdomonistik hissiy tuyg'ularini shakllantirish, ekologik bilimlarini oshirishdan tashqari, ularni ruhiy-jismoniy sog'lomlashtirishda ham juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham shifokorlarning aksariyat zamonaviy industrilashgan, urbanizatsiyalashgan va axborotlashgan jamiyatlar "ekologik kasalliklarini" davolashda ekoturizmdan samarali foydalanishni tavsiya qilishlari bejizga emas.

Dissertatsiyada ekoestetik tafakkurning quyidagi funksiyalari asoslab berilgan:

- shaxs ekologik ongining tabiatni muhofaza qilish faoliyatini tabiatga estetik munosabatni shakllantirish orqali tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishdan iborat regulativ funksiyasi;

- tabiatga estetik munosabat ekologik amaliyotni ideallashtirilgan badiiy obrazlarda aks ettirishning usullari va vositalarini takomillashtirish;

- ekologiya tarixida yaratilgan tarixiy merosni, ijtimoiy-ekologik tajribalarni badiiy obrazlarda umumlashtirish;

- ekologik estetik qadriyatlarni saralash, an'analarini saqlab, ijodiy rivojlantirib yanada takomillashtirishga e'tibor qaratish. Buning uchun ekologik ong va madaniyatni "estetik borliqqa" ko'chirishning obyektiv shart-sharoitlari va

subyektiv omillarini uyg'unlashtiruvchi imkoniyatlarni qidirib topish hamda amalga oshirish asosiy vazifa hisoblanadi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning ijtimoiy mexanizmlarini rivojlantirish hamda uning zamonaviy usul va vositalarini aniqlashtirish, ekologik ta'lim va tarbiya sohasidagi muammolarni oydinlashtirish, ularga qarshi milliy, diniy, umuminsoniy qadriyatlarni integratsiyalashtiruvchi zamonaviy usullarni joriy etish eng dolzarb muammolar turkumiga kiradi. Ekologik ong va madaniyat jamiyatning tabiatga bo'lgan mas'uliyatli munosabatini shakllantiradi. Ular ijtimoiy xulq-atvor va madaniy jarayonlarga ta'sir qilib, ekologik barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi. Ekologik ongning tarqalishi atrof-muhitni asrab-avaylash va uni saqlashga bo'lgan mas'uliyatni jamiyatning barcha qatlamlarida kuchaytiradi. Zero, hozirgi davr falsafasi va ekoestetikaga doir maxsus adabiyotlarda inson tomonidan tabiatni badiiy obrazlarda o'zgartirish va o'zlashtirish jarayonini muayyan ekologik makonda o'z-o'zini shaxs sifatida anglash imkoniyati tarzida e'tirof etilishi ham tasodifiy emas. Iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy muhit ravnaqi, ma'naviy-madaniy o'sish, milliy qadriyatlarni tarannum etish, aholida yaratuvchanlik hissiyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning uchunchi bobi **“O‘zbekistonda tabiat turizmi asosida yoshlar ekoestetik idealini shakllantirish imkoniyatlari”** deb nomlanib, unda O‘zbekistonda yangi yo‘nalish sifatida rivojlanib borayotgan ekoturizm sohasining mavjud holati va istiqbollari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilingan. Global ekologik muammolaryechimida taklif etilayotgan tavsiyalarni amalga oshirish uchun ekologik ta'lim va tarbiyaning dolzarb ahamiyati asoslangan va tabiat turizmining hozirgi holati, taraqqiyot tendensiyasi va istiqboldagi vazifalarini belgilab olish lozimligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyada tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda ekologik holatni sog'lomlashtirishga oid shaxs ekologik ongi, madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish:

- turli kasb yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan barcha aholi hamda ijtimoiy tabaqa ta'lim-tarbiya tizimlarida tabiat turizmining ahamiyatini anglashiga (*gnoseologik asos*);

- uzluksiz tarzdagi ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida kishilarning tabiatga estetik munosabatini, madaniyati va ongini shakllantirishning samarador usullari hamda vositalarini tanlashiga (*metodologik asos*);

- tabiat turizmi sohasiga oid mutasaddi barcha ijtimoiy institutlar hamda davlat tashkilotlari faoliyatini integratsiyalashtirishga (*tashkiliy asos*);

- tabiat turizmi ommaviyligi va unumdorligini ta'minlash maqsadida kadrlar tayyorlash jamoa quvvatlarini uyushtirishga (*axborot va intellektual asos*) bog'liqligi va zarurligi asoslab berilgan.

Shu asoslarga ko'ra tashkillashtirilgan turizm shakli –mavjud ekologik global inqiroz oqibatlarini, shuningdek, kelajakda uning keskinlashish sabablarini bartaraf qilishning nisbatan yangi usuli hisoblanib, eng samarali vositasiga aylanmoqda. Shu bilan birga, antropogen ta'sirlardan holi tabiat qo'yniga kirib borish katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, tabiat turizmi insonni

tabiatning ajralmas qismi ekanligini, tabiatni muhofaza qilishni ta'minlash zaruriyati bilan bog'liqligini anglashga, vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalashdagi ahamiyatini tushunishga olib kelmoqda.

